

BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA TA‘LIM VA TARBIYA USULLARI

Shayvaliyeva Gulabza Nodirxon qizi

Alfraganus universiteti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinflarda ta‘lim jarayonining o‘tmish va buguni, o‘qitishning dolzarbligi, o‘quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishning metodik tizmi hamda boshlang‘ich ta‘lim tizimidan boshlab, ilg‘or pedagogik va innavatsion texnologiyalarni keng qo‘llash haqida fikr yuritilgan.

Yurtimiz mustaqillikka erishgach, ta‘lim va tarbiya tizmini tub isloh qilish maqsadida bir qator asoslarni ishlab chiqdi. "Ta‘lim to‘g‘risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", ning yaratilishi va amaliyotga tatbiq etilishi xalq ta‘limi sohasida buyuk burilishlar yasadi. Milliy pedagogikamizning tez suratlarda taraqqiy etishi, ta‘lim jarayonida, Al -Buxoriy, Abu Rayxon Beruniy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy kabi donishmandu,adiblar merosidan foydalanish imkonini yaratdi. Ular ta‘limdagi milliy xususiyatlarga alohida e‘tibor berishgan. Mustaqillikka qadar ularning faoliyati yetarli darajada o‘rganilmagan. Bir vaqtlar sharq pedagogikasi nihoyatda gullab yashnagan. Sharq daholari o‘zlarining bebaho asarlariyu, ixtirolari bilan dunyo tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Olmon olimi

Xerler "Sharq Yevropaning muallimidir", deganda anashu jihatlarini nazarda tutgandir ehtimol. Buyuk allomalarimiz bola ta‘lim tarbiyasiga alohida e‘tibor berib," Bola tarbiyasida ota onalarni birinchi murabbiyi deb atab, ularni go‘zal fazilatlar bilan farzandlariga ibrat bo‘lishga da‘vat etganlar. Bugungi kun milliy pedagogikasi millat ruhiyatidagi, nozik jihatlarini hisobga olgan va dunyo tarbiyashunosligidagi eng so‘nggi yutuqlarga tayangan xolda taraqqiy etmoqda. Zamonaviy o‘zbek pedagogikasida barkamol insonni tarbiyalash bosh maqsad qilib qo‘yilgan.

Prezidentimiz Islom Karimovning "Barkamol avlod orzusi" va "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida yosh avlodni tarbiyalashda "Kelajak bugundan boshlanadi. Hozir tarbiya masalasiga e'tibor qilinmasa, kelajak boy beriladi. Tarbiyadan hech narsani ayamaymiz. Ma'naviy va axloqiy poklanish, iymon insof, diyonat or nomus, mehr - oqibat va shu kabi chinakam insoniy fazilatlar o'z o'zidan kelmaydi. Hammasining zamirida tarbiya yotadi". degan fikrlarini takidlaydi. Ta'lim tarbiya sohasidagi amalga oshirilayotgan islohatlar qisqa muddatli samaraga qaratilgan ish emas, balki bir necha yuz yilga ta'tiydigan o'zgarish bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Bu birinchi prezidentimizning kelajak avlod haqida qayg'urib, "Yurtimizning barcha farzandlari - mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli, va albatta baxtli bo'lishi shart" degan qaylusi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi. Ma'lumki pedagogika jamyatning rivojlanish qoidalariga tayangan holda taraqqiy etdi. Bugunda bu jarayon avj pallasiga kirgan. Modomiki zamon jadal sur'atlarda o'zgaryapdimi, demak. pedagogika ham o'zgarishga hamohang rivojlanadi.

Pedagogika tarbiya haqidagi fan bo'lib, unda tarbiya mohiyati ochib beriladi. Qadimda inson tarbiyasiga oid fikrlar xalq maqollarida o'z aksini topgan. Ularda rostgo'ylik, ota onaga hurmat, ehtirom kabi fazilatlar tarannum etilgan "Alpomish", "To'maris" doston va ertaklarda, Vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari ulug'lanadi. Ta'lim tarbiya masalasi har doim mutafakkir, yozuvchi va olimlarning xayolini band qilib kelgan Ular o'zlarining barkamol inson tarbiyasi haqidagi yorqin mulohazalari bilan pedagogika fanining rivojiga katta ulush qo'shganlar. O'n sakkizinchi asrga kelib, O'rta Osiyoda ham pedagogik fikrlar taraqqiy eta boshladi. O'n to'qqizinchi asr boshlarida, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Saidahmad Siddiqiy kabi ma'rifat jonkuyarlari yetishib chiqqan. Ta'lim tarbiya masalasini yurt ko'zgusi deb bilgan jadidlarimiz yosh avlod tarbiyasiga alohida e'tibor berishgan Yurt kelajagini boshlang'ich ta'limdan qurishni maqsad qilgan jadidlarimiz, ko'plab yangi usul maktablarini tashkil etib, bu maktablar uchun o'zlari o'quv darsliklar yozganlar.

Tarbiya. Tarbiya - pedagogikadagi asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi."bu masala yoshlarimizning odob axloqi, yurish turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq". Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapdi, bu o'zgarishlarni hammadan his etadigan albatta yoshlar. Mayli yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks sado berib, undab tursin. Bunga nimani hisobidan erishamiz? Tarbiya tarbiya va faqat tarbiyaning hisobidan", kabi so'zlari yosh avlod tarbiyasi hamisha muhim va dolzarb bo'lib kelishini anglatadi

Pedagogika adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi.

Keng ma'noda, tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, jamyat va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirok etishni bildirsa, Tor ma'noda tarbiya sohasining jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy axloqiy qiyofasi va estetik didini o'stirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi prezidentining tashabbusi bilan 2020-yil "Pedagogikka" fani ishlab chiqildi. Bu borada Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-sonli "umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya fanini amaliyotga joriy etish chora tadbirlari to'g'risida" gi qarori qabul qilindi. Tarbiya fani manbalari va ularni o'rganish, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun zarurat hisoblanadi. Avesto kitobida yosh avlodni, ezgu niyat, ezgu fikrli va ezgu amalli shaxs sifatida voyaga yetkazish alohida ta'kidlangan. Shu sababli mazkur tamoyillar hozirgi zamon tarbiya jarayonida ham amaliyotga tadbiriq etilmoqda. Milliy g'oyamizning ikkinchi tamoyili ezgulikdir. Qur'oni Karimda va hadisi shariflarda yoshlarni, e'tiqodli, yaxshilik yomonlikni farqlash ruhida tarbiyalash ta'limi berilgan.

Buning natijasida sakkizinchi asrdan to hozirgi davrgacha pedagogika fanimizda mazkur tamoyillar tarbiyaning asoslaridan bo'lib kelmoqda. Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy "Buyuk didaktikka" asarida yosh avlodni o'qitish

vositasida tarbiyalashni asoslab bergan. Bunda o'quv fanlarini o'qitish jarayoni, shaxsning aqliy, axloqiy va estetik tuyg'ularini shakllantirishga, shaxsni hayotga tayyorlashga asosiy e'tiborni qaratdi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari tarbiyasida metodlardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Buning uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq.

- boshlang'ich sinf o'qituvchilari ning, jismoniy, yosh, ruhiy holatlarini hisobga olish

-ta'lim jarayonida, tajribadan o'tgan metodlardan foydalanish

-Oddiylikdan murakkablikka qarab rivojlangan metodlarni tanlash.

Etibor berilsa boshlang'ich sinf o'qituvchilari tarbiyasida oddiy lekin, samara beradigan metodlarga tayanish kerak.

Tarbiya fani O'zbekiston ta'lim tizimi uchun mutloqo yangi hodisa hisoblanadi. Shu sababli bu fanni o'qitishda xorij tajribalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bir nechta xorij davlatlarining tajribalarini ko'rib chiqamiz.

Buyuk Britaniya -tarbiya jarayoni psixologiya qonuniyatlariga asoslanadi. Tarbiyalanuvchiga olijanoblik ko'nikmasi shakllantirilishiga alohida e'tibor qaratildi.

Germaniya - asosiy e'tiborni idial g'oyalarga qaratadi. Germaniya fuqorolari ko'p hollarda haqqo'yligi bilan ajralib turadi.

Fransiya - tarbiya jarayonida shaxsning estetik didini o'stirishga etibor beriladi. Fransiyaning ta'lim tizimida vatanparvarlik g'oyasi ustuvor hisoblanadi.

Italiya - Ta'lim tizimida, avlodlar bilan g'ururlanish ruhi ustuvor qo'yiladi. Haqiqatan ham mazkur mamlakatdan yetishib chiqqan, Suqrot, Aflotun, Arastu, Siteronning insoniyat talimiga qilgan hissasi kattadir.

Saudiya Arabistoni - tarbiya jarayonida shaxsning e'tiqodli bo'lishga e'tibor qaratilgan.

O'rta Osiyo mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sinolar ham tarbiyaga tasir etadigan omillarga ahamiyat berib kelganlar. Farobiy inson kamolatida ta'lim tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: "munosib inson bo'lish uchun odamda ikki

imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa kishilar bilan muloqotda axloqiy qadir qimmatini va amaliy faoliyatni yoritishga olib boradigan yo'ldir" deydi

Yurtimizda ta'lim tarbiya sifati jumladan boshlang'ich ta'limda o'qitish samaradorligini oshirish va o'quv uslubiy ta'minotini yuksaltirishga qaratilgan bir qator islohotlar natijasida boshlang'ich sinflarda integrativ yondashuv asosida tizimlashtirish, ta'lim texnologiyalarini qo'llash ta'lim mazmunini ilmiy tashkil etishga erishilmoqda. Hozirgi kunga kelib, fan texnika taraqqiyoti asrida ta'lim jarayonini ilg'or innovatsion g'oyalar asosida tashkil etishga undaydi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'limda ko'plab metod va usullar yaratilib, innovatsion va tarmoqli texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. Bu esa ta'lim samaradorligini oshiribgina qolmay, o'qituvchi va o'quvchining ko'zlagan maqsadga ertaroq erishishga yo'l ochadi. Ilm fan yutuqlarini amaliyotga qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta'limda, "Aqliy hujm", "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlar", metodi, "Sinkvin", "Beshinchisi ortiqcha", "Bahs munozara", "Rolli o'yin", "Kichik guruhlarda ishlash", "Yumaloqlangan qor", "Zigzag", "Oxirgi so'zni men aytay" kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan kun oshib bormoqda. Bunga sabab shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgangan. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. Bunday metodlardan yurtimizning chekka qishloq, tumanlarida ham keng qo'llanilsa maqsadga muvofiqdir. Dars jarayonida eng avvalo o'qituvchidan yuksak bilim talab etiladi. Jumlasini ravon, ta'sirchan, va chiroyli bo'lsa, o'quvchilarning darsga diqqati oshardi, mavzuni tushunish darajasi ortadi. Bugungi zamon o'qituvchisidan ilg'or pedagogik mahorat va yangi texnologiyalarni bilishni talab etadi.

O'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zahirida yosh avlodni, odobli, axloqli qilib tarbiyalah, ularni bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirishda esa o'qituvchining faoliyatiga bog'liq: bolalarni o'qitish, sinf va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta olish va ota onalar o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarini olib borish, bularning barchasiga o'qituvchidan chuqur bilimga ega bolishni talab etadi.

O'zbekiston respublikasi oliy Ta'lim Konsepsiyasida o'qituvchi mutaxassisining faoliyati quyidagicha belgilanadi.

"Mutaxassis malakasi chuqur, umumiy bilim, keng dunyoqarash, va kasb tayyorgarligi, kompyuter savodxonligi, o'z bilimini tezlik bilan yangilash va to'ldira olish qobiliyati singari omillardan tashkil topadi. Shular qatorida uning intizomi, mas'uliyat, ziyolilik, o'z ishiga, Vatan taraqqiyoti yo'lida ezgulik va adolatlilik va sadoqat tuyg'ularini ham tarbiyalash zarur. Bu vazifa ayniqsa boshlang'ich sinf o'qituvchisida ayniqsa mujassamlashgan bo'lishi lozim. Zero, maktabga ilk bor qadam qo'ygan bola, dunyoning, hayotning, qonun qoidalarini, sir asrorlarini o'qituvchidan o'rganadi. O'qituvchi kasbiga xos bo'lgan muhim talablaridan biri - bolalarni sevisish, ularni hayoti bilan qiziqish, har bir shaxsni hurmat qilishdan iboratdir.

Buning natijasida sakkizinchi asrdan to hozirgi davrgacha pedagogika fanimizda mazkur tamoyillar tarbiyaning asoslaridan bo'lib kelmoqda. Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy "Buyuk didaktika" asarida yosh avlodni o'qitish vositasida tarbiyalashni asoslab bergan. Bunda o'quv fanlarini o'qitish jarayoni, shaxsning aqliy, axloqiy va estetik tuyg'ularini shakllantirishga ahamiyat berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yoldoshev Q Yuldosheva M, Badiiy tahlil asoslari T Kamalak 2016 464 bet
2. Ziyokor ilmiy uslubiy ijtimoiy adabiy badiiy jurnal 2013 47 bet Muallim qalb me'mori 2001 270-271 bet
3. Do'stmuxammedova. Shu.A.Nishonova.Z.T. Jalilova.S.X. Karimova.Sh.K. Alimbayeva.Sh.T. Yosh va pedagogik psixologiya- T TDPU, 2004
4. Mirziyoyev .Shu.M Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi Toshkent O'zbekiston 2017 yil 48-bet